



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

O'ZBEK TILI DARSLARIDA MATN BILAN ISHLASH

katta o'qituvchilari Gayubova Komila Anvarovna,

Yulanova Nargiza Davlatovna

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent

axborot texnologiyalari universiteti

Erkin diktantning asosiy vazifasi o'quvchilarda muloqot matni yaratish ko'nikmalarini mustahkamlash hamda ularning yozma va og'zaki nutqini o'stirishdan iborat.

Lingvistik tajribaning boshlang'ich darajasi badiiy-shakli o'zgartirilgan matn hisolanadi. Lingvistik tajribaning o'quv maqsadi muloqot matnida qo'llanilgan til vositalarini tanlanganligini asoslab beradi. Bu talabalarda muloqot matni yaratish imkonini beradi. Insho-muloqot matnining shundan turiki, unda o'quvchilar muayyan mavzu bo'yicha o'zlarining mustaqil fikrlarini bayon qiladilar. Insho ustida ishlash natijasida o'quvchilarning fikrlash, tahlil va sintez qilish ko'nikmalarini rivojlanadi.

Fikrni bayon qilish bo'yicha insholarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

1. Bayon qiluvchi.
2. Fikrllovchi.
3. Tavsiflovchi insho.

Tavsiflovchi matnlar mazmunida asosiy diqqat harakatga emas, balki predmetning xususiyati va sifatiga qaratiladi. Shuning uchun bunday matnlarda asosan ega va sifat qatnashadi. Bunday matnlarda bo'lishsiz fe'lidan ham foydalaniladi. Badiiy matnlarda bo'lishsiz fe'l o'tgan zamonda ishlatiladi. Ular bayon qilinayotgan voqeahodisani kuzatilayotgan vaqtagini holatini ko'rsatadi. Ilmiy maqolalarda bo'lishsiz fe'l hozirgi zamon shaklida qo'llaniladi.

Hikoya qiluvchi matnlar mazmunida voqeahodisaning amalga oshishi asosiy ahamiyat kasb etadi. Bunday matnlarda asosan bo'lishli fe'llar qo'llaniladi.

Kommunikativ lingvistikada insonlar bir-birlari bilan gaplar yordamida emas, balki matn yordamida muloqotga kirishadilar. Shuning uchun muloqot matni kommunikativ birlik hisoblanadi. Muloqot matni bir necha qismlardan iborat



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

bo‘ladi. Bular fikr bayon qiluvchi, tinglovchi, fikr bayon qilinayotgan vaqt, matn yaratilgan makon va bayon qilinayotgan fikrning maqsadi.

Muloqot matni yaratishga oid ko‘nikmalarni shakllantirish jarayoni semantik, funksional, kompozitsion uslubiy birlik va matn toifalarini tavsiflaydigan ta’lim hisoblanadi.

Muloqot matni toifalari:

- axborot berish imkoniyatiga egalik;
- tugallanganlik;
- tarmoqqa mansublik;
- integratsiyalashganlik kabilarga bo‘linadi.

Muloqot matnini hosil qiluvchi asosiy omil kommunikativ ehtiyoj hisoblanadi.

Kommunikativ funksional tavsif muloqot matnining asosiy tavsifi hisoblanadi.

Muloqot matni ma’lumotlarni ulashish va saqlash hamda uni qabul qiluvchi shaxsga ta’sir o’tkazish vazifasini bajaradi.

Har qanday matnning asosiy xususiyatlari bu uning axborot bera olishi, yaxlitligi, tarkibiy gaplarning mantiqiy jihatdan bog‘langanligida namoyon bo‘ladi.

Matn bu shunday nutqiy-ijodiy jarayonki, u adabiy jihatdan tahlil qilingan, tugallangan, o‘z nomiga ega bo‘lgan hamda har xil tipdag‘i leksik, grammatik, logik, stilistik aloqadorlikka, muayyan yo‘nalishga ega bo‘lgan yozma hujjatdir.

Matn nutqiy dalil sifatida tizimlilik, izchillik xarakteriga ega. Matn tugallangan xabarни o‘zida aks ettiradi. Biron bir narsa, hodisa haqida o‘z fikrini bayon qilish natijasida minimal matn vujudga keladi.

Gap muloqot qilish vositasida sifatida muayyan fikrni ifodalaydi. Muloqot matni esa fikrlar, xabarlar, ma’lumotlar yiqindisidir.

«Ma’lumot» atamasi ikki ma’noda qo‘llaniladi.

1. Noma’lum holat, hodisa, ilmiy yondashuvlar haqida ayon bo‘lgan haqiqatlar.
2. Hayotimizda iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, siyosiy, ma’naviy, ma’rifiy va madaniy sohalarda sodir bo‘lgan, bo‘layotgan va sodir bo‘lishi kutilayotgan voqeа-hodisalar, xabarlar kabilar.

Shuning uchun morfema so‘z, so‘z birikmasi, axborotni bayon qila olish imkoniyatiga ega emas. Lekin ular xabar bera olish xossasiga ega. Chunki ular



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th February, 2025

axborotlarni bayon qilishda ishtirok etadilar. Gap ham axborotlarni bayon qilishda ishtirok etadi.

Barcha til birliklari muloqot matnlarida turli ma'nolarda qo'llaniladi. Shuning uchun ham talabalarga til vositalarining uslubiy imkoniyatlarini muntazam o'rgatib borish zarur. Muloqot matni turli til vositalari amalda qo'llanilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Muloqot matnida qo'llanilgan til vositalari kommunikativ ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bayon qilinayotgan axborotlarning hissiyotlari til vositalari yordamida ochib beriladi. Ular muloqot matni tarkibida muhim komponent sifatida ishtirok etadi.

Til vositalarining muloqot matni tarkibida fikr bayon qilish imkoniyati ularning turli xabarlarni taqdim etishida namoyon bo'ladi.

Alohibda olingan gapning mazmuni o'zidan oldingi va keyingi gapning mazmuni bilan bog'langan bo'lishi, ularning barchasi o'zaro uzviylikda bog'lanib, muloqot matnida bayon qilinishi nazarda tutilgan fikrning izchilligini ta'minlaydi. Muloqot matni yaratish jarayonida faqatgina gaplarni to'g'ri tuzish emas, balki fikrni ham aniq bayon qilish, tavsifiy komponentlarni bir-biri bilan mantiqan bog'lash ham katta ahamiyatga ega.

Muloqot matni yaratish jarayonida ko'p miqdordagi axborotlarni ixcham bayon qilish katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

- 1.O'zbek tili va adabiyoti. "Fan nashriyoti".1998. № 4
2. O'zbek tili grammatikasi,Toshkent :Fan,1999.
3. O'zbek tilshunosligi masalalari.Toshkent-2000.